



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy.

2024 - yil 16 - aprel

84-7-0-Q/24

Samarqand viloyati hokimligi

Issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi yuridik tashkilotlarga ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

“2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 475-sonli qaroriga asosan issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish hamda korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 24-fevraldagi VI-96-16-7-0-K/24-sonli qarori bilan issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi yuridik tashkilotlarga ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ma‘qullanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta‘minlovchi korxonalar tomonidan yuridik tashkilotlarga ko‘rsatiladigan issiqlik ta‘minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (B.Negmatov), “Issiqlik manbayi” DUK (N.Gazibekov), Samarqand shahri hokimi (F.Umarov), Nurobod tumani hokimi (S.Berdiqulov):

tuziladigan shartnomalarga muvofiq xizmatlar ko‘rsatilishini, shuningdek, iste‘molchilarga issiqlik energiyasi va issiq suv uzluksiz yetkazib berilishini ta‘minlash;

issiqlik ta‘minoti tizimi obyektlarining holati, foydalanilishi va ularni ta‘mirlanishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatilishini;

ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etilishini ta‘minlasinlar.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (O.Xamdamov) bilan birgalikda:

byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan tashkilotlarning xarajatlar smetasida issiqlik energiyasi va issiq suv xarajatlari bo‘yicha belgilangan asosda zarur mablag‘lar rejalashtirilishini;

“Issiqlik manbayi” davlat unitar korxonasi va uning filiallari bilan byudjet tashkilotlari o‘rtasida tuziladigan tegishli shartnoma shartlariga ko‘ra mablag‘larni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta‘minlasinlar.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi (N.Norbekov) ushbu qarorni Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasida rasman e‘lon qilinishini va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror e‘lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Viloyat hokimi



E.Turdimov

Samarqand viloyat hokimining
2024-yil 16-apreldagi
84-7-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan yuridik tashkilotlarga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)

MIQDORI

Xizmatlar turi	Tip, Marka, artikul yoki model raqami	O'lchov birligi	Tarif miqdori (so'm)
Samarqand shahri bo'yicha			
Yuridik tashkilotlar uchun tarif (QQS siz)	QMQ 2.04.02-97	Gkal	506 331
Nurobod tumani bo'yicha			
Yuridik tashkilotlar uchun tarif (QQS siz)	QMQ 2.04.02-97	Gkal	655 697